

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE’S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra’noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich

“ALFRAGANUS UNIVERSITY”

nodavlat oliy ta’lim tashkiloti

“Menejment va marketing”

kafedrasi professori, i.f.d.

Annotatsiya

Ushbu tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarish bo‘yicha zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Sun‘iy intellekt, ERP tizimlari, raqamli logistika va avtomatlashtirilgan ombor boshqaruvi kabi texnologiyalar orqali zaxiralarni real vaqt rejimida nazorat qilish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, inson kapitalining ahamiyati, uzluksiz o‘qitish zarurati va strategik boshqaruvning o‘rni yoritildi. Tahlil natijalari asosida klasterlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha aniq takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: paxta-to‘qimachilik klasteri, zaxira boshqaruvi, raqamli logistika, sun‘iy intellekt, ERP tizimi, avtomatlashtirish, inson kapitali.

Аннотация

В данной работе проанализированы современные подходы к управлению производственными запасами в хлопкоперерабатывающих кластерах. Рассмотрены возможности применения ERP-систем, искусственного интеллекта, цифровой логистики и автоматизированных складских решений для эффективного контроля за запасами в режиме реального времени. Особое внимание уделено роли человеческого капитала и необходимости непрерывного обучения. На основе анализа предложены практические рекомендации по повышению эффективности кластеров.

Ключевые слова: хлопкоперерабатывающий кластер, управление запасами, цифровая логистика, искусственный интеллект, ERP-система, автоматизация, человеческий капитал.

Abstract

This study analyzes advanced approaches to inventory management in cotton-textile clusters. It explores the implementation of ERP systems, artificial intelligence, digital logistics, and automated warehouse technologies for real-time inventory control. The significance of human capital and the need for continuous training are emphasized. Based on the analysis, practical recommendations are proposed to enhance cluster efficiency.

Keywords: cotton-textile cluster, inventory management, digital logistics, artificial intelligence, ERP system, automation, human capital.

KIRISH

Paxta-to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri bo‘lib, xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha

bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab olgan. Ushbu tarmoqda resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish zaxiralarini optimal darajada boshqarish va mahsulot harakatini aniq rejalashtirish ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi.

Klaster tizimining joriy etilishi orqali paxtani qayta ishlash, saqlash va eksport qilish jarayonlari yagona boshqaruv ostida birlashtirildi. Bu esa zaxiralarni nazorat qilishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash imkonini yaratdi. Ayniqsa, raqamli logistika, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va ERP tizimlarining qo'llanilishi zaxiralarni real vaqt rejimida boshqarish, talablarga tez javob berish va yo'qotishlarni kamaytirish imkonini bermoqda.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish zanjiridagi aniqlikni oshirib, barcha bosqichlar o'rtasida uzluksiz axborot oqimini ta'minladi. Bunda inson kapitalining roli ham muhim bo'lib, texnologiyalarni to'g'ri boshqarish uchun malakali mutaxassislar zarurati oshdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — paxta-to'qimachilik klasterlarida zaxiralarni boshqarish bo'yicha qo'llanilayotgan ilg'or texnologik va tashkiliy yondashuvlarni tahlil qilish hamda ularning amaliy samaradorligini baholashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Paxta-to'qimachilik sohasida klaster tizimiga o'tish va raqamli texnologiyalarni joriy etish O'zbekistonda muhim islohotlar qatoriga kiradi. Davlatning bu boradagi yondashuvi sanoatdagi tub o'zgarishlarga asos solgan. Paxta yetishtirishdan tortib uni qayta ishlash va eksportgacha bo'lgan jarayonlar bosqichma-bosqich xususiylashtirilib, klasterlar orqali boshqarilmoqda [1].

Zanjirning har bir bosqichida axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali zaxiralarni nazorat qilish, logistika tizimini optimallashtirish va mahsulot harakatini muvofiqlashtirish imkoniyati paydo bo'ldi. Sifat menejmenti, elektron boshqaruv va ERP tizimlari orqali kompaniyalar resurslar ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish boshladi [3][7].

Sun'iy intellekt yordamida talabni bashorat qilish, buyurtmalarni avtomatik optimallashtirish va zaxira yetishmovchiligining oldini olish kabi texnik imkoniyatlar kengaymoqda. Zamonaviy dasturlar foydalanuvchi ishtirokisiz jarayonlarni avtomatlashtirib, inson xatosi ehtimolini kamaytiradi. Bu texnologik yondashuv kompaniyalarga aniq qarorlar qabul qilishda yordam beradi [2][5].

Shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. To'qimachilik sohasida ishlovchilarni yangi texnologiyalar asosida qayta tayyorlash va doimiy o'qitish iqtisodiy islohotlar samaradorligini oshiradi. Ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlik, ayniqsa, raqamli davrda yanada yaqqol seziladi [8][9].

Oxir-oqibat, bu texnologik va tashkiliy o'zgarishlar davlat siyosati va strategik qarorlar bilan chambarchas bog'liq. O'zbekistonda klaster tizimining rivojlanishi yuqoridan boshlangan islohotlar, hukumat tashabbuslari va xalqaro tajribani inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda. Klaster asosidagi boshqaruv, ilg'or texnologiyalar

bilan birgalikda, paxta-to‘qimachilik sohasining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda [4][6][10].

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda paxta-to‘qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zaxiralarini boshqarish bo‘yicha ilg‘or yondashuvlar tizimli tarzda tahlil qilindi. Sifatli kontent-tahlil va qiyosiy tahlil metodlari asos qilib olindi. Yondashuvlar to‘rt asosiy yo‘nalish: logistika boshqaruvi, sun‘iy intellekt, inson kapitali va klasterlash siyosati doirasida baholandi.

Har bir konsept tarmoq samaradorligi, raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi hamda boshqaruv tizimidagi o‘zgarishlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqildi. Bunda texnologik integratsiya, resurslar harakati va boshqaruv avtomatlashtirilishining iqtisodiy ta‘siri tahlil qilindi.

Metodologik yondashuv orqali ishlab chiqarishdagi zamonaviy raqamli infratuzilma va siyosiy qarorlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik ochib berildi. Bu esa real holatga mos ilmiy xulosa chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So‘nggi yillarda iqtisodiyotning turli sohalarida, shu jumladan, paxta-to‘qimachilik tarmog‘idagi korxonalarda zaxiralarni boshqarishda ham turli xil axborot texnologiyalarini tobora ko‘proq va hamma joylarda qo‘llana borishi bilan bog‘liq holda sezilarli transformatsion siljishlar ro‘y bermoqda.

“Onlayn” va “offlayn” sohalar jarayonlarining o‘zaro ta’sirlashuvi ro‘y beradigan gibrud muhit tobora faol shakllanib bormoqda. Bu quyidagi omillar mavjudligiga bog‘liq holda paxta-to‘qimachilik klasterlaridagi korxonalar biznes-jarayonlariga raqamli iqtisodiyotning obyektiv hamda muqarrar ta’sir qilishi haqida guvohlik beradi (1-rasm).


Buyumlar Interneti texnologiyasining tarqalishi	turli xil datchiklar, qurilmalar, transport vositalari va uskunalarning ma’lumotlarni uzatish tarmoqlariga umumiy ulanganligi hisobiga buyumlar Interneti texnologiyasining tarqalishi;
Katta ma’lumotlar texnologiyasi	katta ma’lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlash texnologiyasi yordamida tuzilmalashni talab qiluvchi sezilarli ma’lumotlar massivlarini jamg‘arish;
Qo‘l mehnatini avtomatlashtirish	og‘ir qo‘l mehnati o‘rnini almashtirish uchun dasturiy ta’minot va robotlashtirishni takomillashtirish

1-rasm. PTK korxonalaridagi biznes-jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi raqamli iqtisodiyot omillari¹.

¹Muallif tomonidan tuzilgan.

Zamonaviy raqamli axborot va kommunikatsion texnologiyalarning joriy qilinishi bilan ta'minot zanjirlarini boshqarish doirasida biznes-jarayonlarning to'liq integratsiyalanishi mumkin bo'lib qoldi. Bu integratsiyalashgan boshqaruvni va axborot, moliyaviy hamda tovar oqimlarini nazorat qilishni amalga oshirishga imkon berdi va ishlab chiqarish, taqsimlash va tashish logistik tizimlarining yangi doirasini yuzaga keltirdi. Ta'minot zanjirlarini boshqarish nafaqat bo'g'in (korxona)larning chiziqli tartiblangan ketma-ketligini, balki qo'shilgan qiymatga va qimmatliklarga ega bo'lishga yo'naltirilgan logistik operatsiyalarning murakkab ketma-ketligi bo'lib ham qoldi.

Yaqin yillarda axborot texnologiyalari bozori hajmi keskin o'sib borishi va yillik o'sish sur'ati 8,3 % ga teng bo'lgani holda 2028-yilga kelib 12 417,21 mlrd dollarga yetishi kutilmoqdadir¹.



2-rasm. Axborot texnologiyalari global bozori ko'rsatkichlarining o'sishi, mlrd. dollar².

2-rasmda ko'rib chiqilgan barcha segmentlarda bulutli texnologiyalar va katta ma'lumotlar negizidagi mahsulotlar ulushining o'sib borishi ta'kidlab o'tiladi.

Ham jahonda, ham O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning quyidagi — turli xil raqamli tizimlar va texnologiyalarning dasturiy-apparatli o'zaro mosligining hamda ma'lumotlarni almashishdagi xavfsizlikning darajasi yetarli emasligi kabi kamchiliklari mavjudligini ta'kidlab o'tish lozimdir.

¹Information Technology Market Report 2024 — Information Technology Market Statistics And Share 2033 <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/information-technology-global-market-report>


²Составлено автором на основании данных Information Technology Market Report 2024 — Information Technology Market Statistics And Share 2033 <https://www.thebusinessresearchcompany.com/report/information-technology-global-market-report>.

2020-yilda “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi qabul qilinib, uning doirasida “elektron hukumat tizimini takomillashtirish, kelgusida dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining milliy bozorini rivojlantirish, respublikaning barcha mintaqalarida IT-parklarni tashkil etish, mazkur sohani malakali kadrlar bilan ta’minlashni ko‘zda tutuvchi 220 tadan ortiq ustuvor loyihalar rejalashtirilgan”¹.

Zamonaviy raqamli axborot texnologiyalari O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlarining korxonalari faoliyatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston hukumati to‘qimachilik sektorini modernizatsiyalashga yo‘naltirilgan turli xil tashabbuslar, grantlar va loyihalar orqali raqamlashtirishni qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirmoqda.

Paxta-to‘qimachilik korxonalarining zahiralarni boshqarish uchun qo‘llaniladigan innovatsiyalarni ko‘rib chiqamiz:

1. Zahiralarni boshqarishning ko‘p kanalli tizimi bir vaqtning o‘zida zahiralardan foydalanish uchun korxonaning turli xil bo‘linmalaridan bir nechta so‘rovnomalarni qayta ishlashga muqobil bo‘lgan dasturiy ta’minotni qo‘llashga asoslanadi. Boshqaruvning ko‘p kanalli tizimidan foydalanish omborda tovarlar to‘lib ketishiga ham, zahiralar taqchilligiga ham yo‘l qo‘ymagan holda zahiralarning doimiy kelib tushish va chiqib ketishi jarayonini uyg‘unlashtirishga imkon beradi. Texnologiya barcha kanallar bo‘ylab muvofiqlashtirishning yuqori darajasidan, shuningdek, zahiralarning omborlar yoki korxona bo‘linmalari orasida tezkor ko‘chishi imkoniyatidan ham foydalanadi. To‘qimachilik tarmog‘i korxonalari zahiralarni ko‘p kanalli boshqarishdan ularning eng yuqori samarali foydalanilishi uchun qo‘llaydilar (3-rasm).



3-rasm. Zaxiralarni ko‘p kanalli boshqarish tamoyillari².

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5 oktabrdagi PF-6079-son ““Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni <https://lex.uz/docs/-5030957>

²Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2. Zaxiralarni bulutli boshqarish. Zaxralarni bulutli boshqarish texnologiyasi ilgari qo'llanilib kelingan standart dasturlarni o'rnini egalladi. Zamonaviy bulutli yechimlar sun'iy intellekt (SI) asosida ishlaydi va ish jarayonlarini optimallashtirish uchun avtomatizatsiyadan foydalanadi. Bunday usulning ustunligi shundaki, bunga ko'ra o'ta qimmat uskunalarni qo'llamasdan bulutda ma'lumotlarning katta hajmini saqlash mumkin, bulutli ombordan ma'lumotlarni yuklash orqali dasturiy ta'minotni yoki platformani almashtirish imkoniyati ham mavjuddir.

3. Robototexnikadan foydalanish. Ombordagi jarayonlarni robotlashtirishning asosiy ustunligi bo'lib yuklarni tashish va ko'chirish samaradorligining ortishi hisoblanadi. Bunda yukni ko'chirishda xatolik yoki zararlanishi imkoniyati bartaraf etiladi. Robotlardan foydalanish ombor operatsiyalari samaradorligini oshiradi, xodimlarga tahlil va nazorat funksiyasini qoldirgan holda ularni og'ir va monotonli ishdan xalos qiladi. Robotlardan foydalanish ishlab chiqarishdagi travmatizm tavakkalini pasaytiradi va xavfli yoki takrorlanaveradigan ishlarni avtomatlashtirish hisobiga personal xavfsizligini oshiradi.

4. Omborda maxsus datchikli (IoT) qurilmalarning avtomatlashtirilgan tarmoqlaridan foydalanish. To'qimachilik ishlab chiqarishida xom-ashyo bo'lib hisoblanadigan paxta tolasi va paxta linti saqlashning alohida sharoitlari (ma'lum bir namlik, temperatura)ga ehtiyoj sezadi. Saqlash shart-sharoitlariga rioya qilmaslik yakuniy mahsulot sifatini pasaytiradi, bunga esa xalqaro bozorlarda mahsulot sifatiga qo'yiladigan qattiq talablar sharoitida yo'l qo'yib bo'lmaydi. Omborda o'rnatilgan maxsus datchiklar barcha zaruriy parametrlar holatini monitoring qilish va mazkur jarayon ustidan nazoratni amalga oshiruvchi kishi kompyuteriga ularning uzatilishini amalga oshirish imkonini beradi. Aqlli datchiklar shuningdek, korxonadagi ishlab chiqarish zaxiralari harakatining barcha bosqichlarini nazorat qilishga ham imkon hosil qiladi.

1-jadvalda to'qimachilik korxonasining zaxiralarini boshqarish uchun qo'llash mumkin bo'lgan sun'iy intellekt imkoniyatlari ajratib ko'rsatilgan.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish kompaniyalarga xarajatlarni minimallashtirish, chiqindilar miqdorini qisqartirish va real vaqt rejimida zaxiralarga bo'lgan ehtiyojlarga javob topish hamda tendensiyalarni bashorat qilish hisobiga ta'minot zanjirlaridagi umumiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Sun'iy intellekt tizimlari zaxiralar haqidagi axborotlarni real vaqt rejimida avtomatik tarzda yangilashi va kuzatib borishi mumkin. Bunday avtomatlashtirish inson xatoligi ehtimolini pasaytiradi va zaxiralar haqidagi ma'lumotlar har doim aniq bo'lishini kafolatlaydi. SI yordamida kompaniyalar bir lahzada qanday tovarlar mavjudligi, ularning tugab borayotganligi yoki takror buyurtmaga ehtiyoj sezayotganligi haqida bilib olishlari mumkin bo'lib, bu istalgan vaqtda zaxiralarning optimal darajasini ta'minlab turishga ko'maklashadi.

Sun'iy intellekt tizimlari tovarlarga bo'lg'usi talabni bashorat qilish uchun sotuv haqida oldingi davr ma'lumotlarini va bozor tendensiyalarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu imkoniyat kompaniyalarga oldindan zaxiralar darajasini talabning bashorat qilinadigan o'zgarishlariga bog'liq holda moslab borish bilan boshqarishga imkon

beradi. Bunday tahlil kapital ortiqcha zaxiralarda muzlatib qolinmasligini va tovar mavjud emasligi ortidan sotish uchun imkoniyatlar qo‘ldan chiqarilmasligini kafolatlash bilan ortiqcha tovarlar to‘planib qolishi yoki taqchillik paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslikka yordamlashadi.

1-jadval

To‘qimachilik korxonasining zaxiralarini boshqarish uchun sun‘iy intellekt imkoniyatlari¹

Nomi	Mazmuni	Hisoblash formulasi
Mahsulotga talabni bashorat qilish	Mashinali o‘qitish turlaridan foydalanish: vaqt qatorlari, regression tahlil, neyronli tarmoqlar	$Y_t = b + Y_n * j + E_t$ Y_t – t vaqt momentidagi o‘zgaruvchining qiymati; Y_n – oldingi vaqt momentidagi o‘zgaruvchi qiymati; b – konstanta; E_t – t vaqt momentidagi nogahoniy xatolik.
Buyurtmalarni optimallashtirish	Buyurtmalar parametrlarini optimallashtirish uchun dinamik dasturlashtirish algoritmlarini qo‘llash	$F(i,s) = F(i-1,s - q_i) + v_i$ F(I,s) - i-nchi tovar va s vositalar qoldiqlari jami zaxirasining maksimal qiymati; q_i – i-nchi tovar qiymati; v_i – i-nchi tovarni sotishdan yutuq.
Sarf-xarajatlarni qisqartirish	Genetik dasturlashtirish algoritmlari kabi marshrutizatsiyalash algoritmlaridan foydalanib, tashish xarajatlarini pasaytirish mumkin	Neyrotarmoq o‘tkazgan marshrut tahlili omborlarni optimal joylashtirishni aniqlashga va logistik oqimlarni optimallashtirishga imkon berib, bu tashish xarajatlarini pasaytiradi.

Logistik taqsimlash buyurtmani bajarish vaqtiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Transport infratuzilmasining takomillashuvi tashish va buyurtmalarni bajarish vaqtini qisqartirishi mumkin. Raqamli transformatsiyalashuvga bog‘liq holda kompaniyalar iste’molchilik talabini yaxshiroq bashorat qilishlari mumkindir.

Raqamli platforma orqali ish olib boruvchi biznes uchun logistik jarayonlarni samarali boshqarish muhimdir. Zaxiralarni boshqarish va transport-logistika xizmatini ko‘rsatish uchun raqamli platforma – bu korxona zaxiralarini, shu jumladan, xom-ashyo yoki tayyor mahsulotlarni saqlash va tashish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlarni optimallashtirish uchun raqamli texnologiyalardan foydalanadigan tizimdir.


Logistik raqamli platformani yaratish quyidagi tamoyillarga asoslanadi (4-rasm).

Raqamli platformalardan foydalanish to‘qimachilik korxonalariga jarayonlar shaffofligini yaxshilash, buyurtmalarni qayta ishlash vaqtini qisqartirish, sarf-xarajatlarni pasaytirishga yordam beradi.

Logistik raqamli platformaning amal qilishi korxona omborida aqlli datchiklar mavjudligi, samarali integratsiyalashgan rejalashtirish, zaxiralarni boshqarishning

¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

avtomatlashtirilgan tizimi, ta'minot zanjiriga ta'sir ko'rsatishning raqamli dastaklari mavjudligiga asoslanadi. Mazkur komponentlarni bitta shaffof tizimga to'liq birlashtira olish imkoniyatiga ega bo'lgan korxona mijozlarga xizmat ko'rsatishda sezilarli raqobatchilik ustunliklariga ega bo'ladi, aynan olganda esa – ish jarayoni moslashuvchanligi va samaradorligini, shuningdek, logistik faoliyat sarflarini kamaytirish imkoniyatini qo'lgan kiritadi.



4-rasm. Logistik raqamli platformani yaratish tamoyillari¹.

Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasteri korxonalari faoliyatiga tobora sezilarli ta'sir ko'rsatib bormoqda. Ular ichida innovatsion va axborot texnologiyalari, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari imkoniyatlari: to'qimachilik tarmog'ida zaxiralarni ko'p kanalli boshqarish, zaxiralarni mobilli va bulutli boshqarish, hisobdorlik va tahlil ishlarini avtomatlashtirish, robototexnika, mashinali o'qitish texnologiyalari, real vaqt rejimida zaxiralarni kuzatib borish, logistik raqamli platformalardan foydalanish kabilarni ajratib ko'rsatish mumkindir.

Zaxiralarni boshqarish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlarini – mahsulotga talabni bashoratlash, buyurtmalarni optimallashtirish, sarf-xarajatlarni qisqartirish kabilarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. Bundan tashqari, sun'iy intellekt texnologiyalari ishlab chiqarishni rejalashtirish, xarajatlarni qisqartirish uchun

¹Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

zaxiralar darajasini optimallashtirish, o'z vaqtida yetkazib berish uchun logistikada marshrutlarni optimallashtirish va mijozlar bilan o'zaro harakatlarni avtomatlashtirish uchun talab tendensiyalarini bashorat qilishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Paxta-to'qimachilik klasterlarida ishlab chiqarish zaxiralarini samarali boshqarish korxonaning umumiy barqarorligi va rentabelligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy raqamli texnologiyalar, ayniqsa ERP tizimlari, bulutli platformalar va sun'iy intellekt asosidagi boshqaruv vositalari orqali zaxiralar ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish mumkin. Bu yondashuv ishlab chiqarish, saqlash va yetkazib berish bosqichlarida aniqlik va moslashuvchanlikni oshiradi.

Ombor logistikasida avtomatlashtirilgan tizimlar, aqlli datchiklar va robototexnika vositalaridan foydalanish orqali inson xatosi kamayadi, jarayonlar tezlashadi, mahsulot sifati saqlanib qoladi. Bunday yondashuv tarmoq samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy texnologiyalarning samarali ishlashi uchun malakali kadrlar tayyorlash alohida e'tiborga loyiq. Raqamli tizimlarni to'g'ri boshqarish, ma'lumotlar tahlilini aniq bajarish va logistik oqimlarni optimallashtirish uchun uzluksiz o'qitish zarur.

Tahlillardan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Paxta-to'qimachilik korxonalarida ERP va AI texnologiyalarini joriy etish jarayonlari tizimli tarzda qo'llab-quvvatlanishi lozim.
 2. Logistika zanjirining har bir bo'g'inida raqamli kuzatuv va avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalanish kengaytirilishi kerak.
 3. Malakali texnolog mutaxassislarini tayyorlash va mavjud kadrlarni qayta o'qitish bo'yicha amaliy dasturlar ishlab chiqilishi zarur.
 4. Klaster ichidagi hamkorlik mexanizmlarini kuchaytirish orqali zaxiralarning harakati bo'yicha uzluksiz axborot almashinuvi ta'minlanishi maqsadga muvofiq.
- Yuqoridagi takliflar orqali zaxira boshqaruvi, ishlab chiqarish barqarorligi va eksport salohiyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mustahkamlanadi hamda tarmoqdagi umumiy raqobatbardoshlik oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asfaw, E. B. (2021). State-led cotton deregulation in Uzbekistan: Reforms and effects. Central Asian Journal of Water Research. Retrieved from <https://ks.dku.kz/documents/28/6. State-led cotton deregulation in Uzbekistan Reforms and effects.pdf>
2. Ergashxodjaeva, S. J., Kyvyakin, K. S., & Hakimov, Z. (2018). Method of evaluation of the classification possibilities imply with the model of M. Porter in a competitive environment created in light industry. International Journal of Economics and Management Sciences. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/324035482>

3. Mamasydykov, A. A., Abdiev, M. Z., & Attokurova, G. M. (2019). Development of export potential of processing companies on the cluster basis with the help of quality management. *International Journal for Quality Research*, 13(4), 963–976. Retrieved from <http://www.ijqr.net/journal/v13-n4/13.pdf>
4. Babadjanov, J., & Petrick, M. (2025). Uzbekistan's cotton clusters in the context of the industrial policy debate. *Eurasian Geography and Economics*. <https://doi.org/10.1080/15387216.2023.2267093>
5. Yuldashev, N. K., Nabokov, V. I., Nekrasov, K. V., et al. (2022). Formation of clusters as a priority direction of innovative development of the agricultural sector of Uzbekistan. *IOP Conference Series: Earth and Environmental Science*, 949(1), 012070. <https://doi.org/10.1088/1755-1315/949/1/012070>
6. Khurana, K., & Ataniyazova, Z. (2020). Insights and future forward for fashion and textile value chain in Uzbekistan. *Research Journal of Textile and Apparel*. Retrieved from <https://www.researchgate.net/publication/344622642>
7. Nasimov, B. (2024). Improvement of production reserve management models in cotton-textile clusters: ERP-systems. Решение социальных проблем в управлении и экономике. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/sspme/article/download/71793/73420>
8. Konina, N. Y. (2025). Problems of lifelong learning of textile industry employees in Central Asia in the conditions of the Fourth Industrial Revolution. In *Bridging the Gap Between the Higher Education and Labor Market* (pp. 315–322). Springer. https://doi.org/10.1007/978-981-96-1933-7_28
9. Umarova, G., Ivolga, A., Nekhaychuk, D., & Pavlenko, I. (2024). Assessment of investment activity management at textile industry enterprises in the Republic of Uzbekistan. *E3S Web of Conferences*, 421, 01002. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202342101002>
10. Holiyova, R. S., Kosimov, S. S., & Atamirzaev, E. K. (2018). Developing trends of cotton industry of Uzbekistan in the innovative introduction stage. *Неделя науки СПбПУ*. Retrieved from https://elibrary.ru/full_text.asp?id=36678888



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketingjournalbot](https://t.me/@marketingjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: 9710. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlari standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**